

## Hofiz Xorazmiy Devonining Turkiyada o'rganilishi

**Otajonova Farog'at G'afurjonovna**

UrDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrası o'qituvchisi

+998941187722

[farogatotajonova69@gmail.com](mailto:farogatotajonova69@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Turkiy tillar bo'yicha dunyoga tanilgan tilshunoslarning Hofiz Xorazmiy devoni tili haqidagi qarashlari o'rganiladi. 1998-yilda Turkiyalik professor Rejep Toparli tomonidan nashr qildirilgan Hofiz Xorazmiy devonining xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Abstract:** The article examines the views of world-renowned linguists on Turkic languages about the language of Hafiz Khorezmi's office. The features of Hafiz Khorezmi's book, published by Turkish professor Recep Toparli in 1998, are discussed.

**Annotatsiya:** В статье рассматриваются взгляды всемирно известных лингвистов-тюркских языков на язык Хафиз-хорезмского дивана. Обсуждаются особенности книги Хафиза Хорезми, изданной турецким профессором Реджепом Топарли в 1998 году.

**Kalit so'zlar:** H. Xorazmiy devoni, matn lingvopoetikasi, devon faksimilesi, so'zlarning xususiyatlari, eski turkiy adabiy tili, turkiyshunoslar, Chig'atoy tili

**Key words:** H. Khorazmi's divan, text linguoepoetics, facsimile of divan, features of words, old Turkish literary language, Turkic scholars, Chigatay language

**Ключевые слова:** диван Х. Хорезми, лингвопоэтика текста, факсимиле дивана, особенности слов, старотурецкий литературный язык, тюркологи, чигатайский язык.

### KIRISH

Eski turkiy adabiy til davri o'z ichida quyidagi bosqichlarni birlashtiradi: 1)Qoraxoniylar davri tili (qoraxoniylar davrida yaratilgan yozma yodgorliklar tili); 2)Chig'atoy turkiysi; 3)Eski Xorazm turkiysi(Oltin O'rda va Xorazm muhitida amal qilgan adabiy til); 4) Eski qipchoq tili (Misrda yozilgan grammatik asarlar va lug'atlar hamda g'arbiy turk o'lkalarida qipchoqlar yaratgan asarlar tili); 5)Eski Onado'li turkchasi (Bu XIII – XV asrlarda o'g'uz turklari qo'llagan yozma adabiy tildir. Keyinchalik buning negizida usmonli turkchasi otini olgan adabiy til yuzaga

keldi). Turkiyshunos olimlar e'tirofiga ko'ra Chig'atoy adabiyotining bugunga qadar unutilib kelgan [R.Toparli,1998,-3] juda muhim shoirlaridan bo'lgan Hofiz Xorazmiy qalamiga mansub "Devon"ning til xususiyatlarini o'rganish orqali o'zbek tilining fonetik, grammatik va leksik o'ziga xosliklarini tadqiq qilish dolzarb masala hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

Hofiz Xorazmiy devonining 1981-yildagi o'zbek olimi Hamid Sulaymonov hamda 1998-yilda Turkiyada Rejep To'parli tomonidan nashr qilingan nashrlari o'zaro qiyosiy-tahliliy metod orqali tadqiq qilinadi.

### **MUHOKAMA**

Hofiz Xorazmiy devonini nashrga tayyorlagan o'zbek olimi Hamid Sulaymon ham, turkiyalik olim Rejep To'parli ham matnga juda katta e'tibor va ehtirom bilan yondashadigan mutaxassislar bo'lgani bois, bir qadar murakkab xat bilan yozilgan asarni muvaffaqiyat bilan o'qiganlar. Rejep To'parli Hamid Sulaymonning bu boradagi mehnatlarini qadrlab, "chig'atoy adabiyotining hozirgi kungacha eng muhim shoirlaridan biri bo'lgan Xorazmiy Hofizning she'rlarini o'z ichiga olgan devonini professor Hamid Sulaymon tomonidan Hindistonning Haydarobod shahridagi Salarjang muzeyidan topilgan yagona nusxasi asosida 1981-yilda krill alofbosida ikki jildga jamlab nashr qilingani va shu tariqa ilmiy jamoatchilikka tanishtirilgani" haqida "nihoyatda go'zal she'rlarni o'zida mujassam etgan bu devon til tarixi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega" – deb baholar ekan ayrim mulohazalarini ham bayon etadi.

### **NATIJALAR**

Hofiz she'rlarida juda sodda va tushunarli umumturkiy tildan foydalangan. Ikkidan ortiq so'z birikmalarini juda kam qo'llagan shoirimizning tili Chig'atoy Turkchasing ilk davrlardagi xususiyatlarini, Xorazm – Oltin O'rda turkchasi bilan Navoiy tili orasidagi ulkan davrning boshqa bir xususiyatlari bilan eski va yangi til belgilari bilan aralash tilning o'ziga xosliklarini mujassam qilganligini kuzatadi. Bunga Devon ichidagi she'riy asarlardagi so'zlardan misollar keltirib o'tadi [R.Toparli,1998,-14]. Forsiy va turkiy so'zlardan qurilgan izofalardan, arabiy va turkiy so'zlardan qurilgan izofalardan misollar topiladi hamda sinonim yoki antonim so'zlar bilan qurilgan umumturkiy so'z qo'llanilgan o'rinlar haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Buning barobarida ikki turkiy so'zlar bilan qurilgan forsiy va turkiy so'zlar bilan qurilgan, turkiy va forsiy so'zlar bilan qurilgan. Shuningdek, Hofizning oyat va Hadislardan keltirgan iqtiboslarini aniqlab beradi. Taniqli turkolog olim Dots. Dr. Yavuz Akpınar qo'lyozmaning asl fotosuratlarini qo'lga kiritgani holda, Turkiyalik olimlar katta hajmli devon ustida katta zavq va e'tibor bilan ishga

tushdilar. Tadqiqotning kirish qismida Hofizning hayoti , she'riyati va tili haqida ma'lumot berib, misollarni nihoyatda cheklagan holda devonning morfologik xususiyatlarini asosiy satrlari bilan ko'rsatilgan SHuningdek, bu birga bibliografiya ham kiritilgan. Devon transkripsiyasi tayyorlanib, pastki qismida har bir she'rning matni berilgan. Turk madaniy hayotiga oz bo'lsada hissa qo'shish maqsadida olib borilgan ushbu tadqiqotning paydo bo'lishiga hissa qo'shganlarga hamda Hofiz Xorazmiyning devonini topib ilm olamiga tanitgan Prof. Dr. Hamid Sulaymonga bag'ishlaydi. ofiz Xorazmiy XV asr Chig'atoy adabiyotining muhim shoirlaridan bo'lsa-da, u bizning davrimizga qadar e'tirof etilmagan, manbalarda ham u haqida ma'lumot keltirilmagan.

XV asrda temuriylar hukmron bo'lgan hududlarda adabiy til fors tili bo'lgan. Fors adabiyoti turkiy tilga qaraganda mo'g'ullar davrida ko'proq iste'molda edi. Mag'rib-i Tabriziy(vaf.1406), Ismat-i Buxoriy (vaf.1425), Ne'matulloh-i Kirmoniy (vaf.1430), Kosimul Anvar (vaf.1434), Kotibi Shamsiddin Muhammad (vaf.1436), Orifiy (vaf.1449), Darvesh Ashraf-I Mirog'i Tabriziy (vaf.1450) kabi ijodkorlar Shohruh va Ulug'bek davrida qalam surganlar. Hofizning o'sha davrda soyada qolib , nima uchun unutilganini yaqqol ko'rsatib beradi. Fors tili haqiqiy adabiy til sifatida qabul qilingan bir davrda she'rlarini turk tilida yozgan shoirga etarli baho berilmasdan ikkinchi o'ringa surilishi tabiiy degan fikrni ilgari suradi.

14-asr oxirlarida Xorazmda hukm surgan notinchliklar tufayli, o'sha davrda Xorazmlik ko'plab olimlar, shoirlar , san'atkorlar boshqa mamlakatlarga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. O'sha paytda yoshlik davrida bo'lgan shoirimiz ham tanimaganligidan noligan holda , vatanini tashlab, o'zga yurtlarga, balki Sheroz<sup>1</sup>ga ketgan bo'lishi mumkin.

Kech bu Xorazmdin ravon Hofiz,  
Tilar ersang Iroq va Sheroz

(445-g'azal)

Shoirning tahalluslari haqida ma'lumotlar sifatida Hofiz Xorazmiy aksariyat she'rlarida Hofiz tahallusini ishlatganligi Shu kabi 6- va 7-qasidalarida Hofizi Xorazmiy , 199- g'azalda Abdurrahim, forsha bo'lgan 59-, 91-, 114-, 115-, 143- va 144- g'azallarda esa Rahim nomini tahallus sifatida qo'llyaydi.

Chig'atoy she'riyat dunyosining Hofizi bo'lishni istagan va  
"Hofizni ko'ring bu zamon turk tilida

Gar kechdi esa Forsda ul Hofiz-i Sheroz" - , deb yozgan bayti bilan buni tilga olgan shoir, Hofiz Sheroziy bilan ayni zamonda, ayni yuz yillikda birga yashagan

---

<sup>1</sup> Levend A. Ali Şir Nevai, 1. Cilt: Hayati, Sanati ve Kişiliği, Ankara,1965

deb taxmin qilinadi. Hofiz Sheroziyning dunyodan o'tgan 1389- yilda Hofiz Xorazmiyning navqiron yigit bo'lganligi ehtimoli yuqoridir. She'rlarida turk tilidan mohirona foydalangan Hofiz, forschan ham she'r bitish darajasida yaxshi egallagan. Qolaversa, keltirgan iqtiboslari inobatga olgan holda arab tilidan yetarli ilmga egaligi ayon bo'lishini aytadi. Mavjud ma'lumotlarga tayanib Alisher Navoiyga qadar murakkab devonni birinchilardan bo'lib tuza olgan shoirimiz, o'zini turkiyzabon adabiyotning Hofizi deb tanishtirganligi ko'riladi. Qo'limizdagi yagona asari bo'lgan Devoni uning bu xususdagi iddaolarini oqlaydi deya olamiz. Hofiz Devon tuzish an'analarini katta mahorat bilan ishlatadi. U o'z she'rlariga Halloji Mansur, Uvays Qaraniy kabi mashhur so'fiylarning nomlarini keltirib o'tadi. Devonidan anglashilishicha, u tasavvufdan badiiy vosita sifatida muvaffaqiyatli foydalanganligining guvohi bo'lamiz.

### **XULOSA**

Hofiz she'rlarida juda tushunarli va soda turkiy tildan foydalangan. Shoir tilida ikki so'zdan ortiq birikmalariga juda kam joy berilgan. Shoir she'riyati tili Chig'atoy turk tilining ilk davri xususiyatlari, Xorazm- Oltin o'rda turkchasi va Navoiy tili o'rtasidagi o'tish davri xususiyatlariga ega, ya'ni eski hamda yangi til xususiyatlari uyg'unlashganligini namoyon qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Bartold Wilgelm. Ulug'bek va zamoni (tarj. Prof. Ismail AKA), Madaniyat vazirligi nashrlari 1118, Ankara, 1990
2. Harezmi Hafiz'in divani. – Ankara: Turk Dil Kurumu, 1998– S. 68.
3. <https://www.turkedebiyati.org/cagatay-edebiyati/>
4. Levend A. Ali Şir Nevai, 1. Cilt: Hayati, Sanati ve Kişiliği, Ankara, 1965
5. Toparli R. Çağatay Şairi Hafiz Harezmi, Turk dünyası Araştırmaları Dergisi, 1984.
6. Хофиз Хоразмий. Девон 1-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981.